TOSHKENT VILOYATI OHANGARON SHAHAR HOKIMI QARORI

2023 - yil 9 - oktabr 251-10-214-Q/23 Ohangaron shahar hokimligi

Ohangaron shahrining asosiy ko‘chalaridan biri hisoblangan, shaharning “Vatan”, “Shodlik”, “Ohunboboyev”, “Umid”, “Orzu” hamda “Namuna” MFYlari hududlaridan o‘tuvchi “Ohunboboyev” ko‘chasi bo‘ylab svetofor, 1.8. “Svetofor bilan tartibga solish” ogohlantiruvchi va “3.24. “Yuqori tezlik cheklangan” taqiqlovchi yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25 moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Avtotransport vositalarining pala-partish tartibsiz ravishda harakatlanishlariga chek qo‘yish, sodir bo‘lishi mumkun bo‘lgan yo‘l transport hodisalarini oldini olish shu asnoda aholi o‘rtasida yo‘l transport hodisalarining oshib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik, budjet mablag‘lari hisobidan ta’mirlanayotgan ichki yo‘llarni ekspluatatsiya muddatlarini uzaytirish maqsadida hamda bir guruh fuqarolarning Ohangaron shahrining asosiy ko‘chalaridan biri hisoblangan, shaharning “Vatan”, “Shodlik”, “Ohunboboyev”, “Umid”, “Orzu” hamda “Namuna” MFYlari hududlaridan o‘tuvchi “Ohunboboyev” ko‘chasi bo‘ylab belgilangan tartibda svetofor o‘rnatish va 1.8. “Svetofor bilan tartibga solish”. (Harakatlanish svetofor bilan tartibga solinadigan chorraha, piyodalar o‘tish joyi yoki yo‘l qismini bildiradi.) ogohlantiruvchi hamda “3.24. “Yuqori tezlik cheklangan”. (Belgida ko‘rsatilganidan ortiq tezlikda (km/s) harakatlanish taqiqlanishini bildiradi.) taqiqlovchi yo‘l belgilarini

o‘rnatish to‘g‘risida qilgan murojaatlari ma’qullansin.

2. Ohangaron shahrining asosiy ko‘chalaridan biri hisoblangan, shaharning “Vatan”, “Shodlik”, “Ohunboboyev”, “Umid”, “Orzu” hamda “Namuna” MFYlari hududlaridan o‘tuvchi “Ohunboboyev” ko‘chasi bo‘ylab belgilangan tartibda svetoforlar va 1.8. “Svetofor bilan tartibga solish” ogohlantiruvchi hamda “3.24. “Yuqori tezlik cheklangan” taqiqlovchi yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

3. Yo‘l belgilarini o‘rnatish ishlarini belgilangan tartibda amalga oshirish Ohangaron shahar IIB YXH bo‘limi hamda shahar Obodonlashtirish Boshqarmasi zimmasiga yuklatilsin.

4. “Ohangaron hayoti – Jizn Axangarana” gazetasi tahririyati mazkur qaror rasman kuchga kirishi bilan, keng jamoatchilik o‘rtasida va ommaviy axborot vositalari orqali yoritilishini ta’minlasin.

5. Shahar Ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limiga yuqorida qayd etilgan manzillarga svetoforlar va 1.8. “Svetofor bilan tartibga solish” ogohlantiruvchi hamda “3.24. “Yuqori tezlik cheklangan” taqiqlovchi yo‘l belgilari o‘rnatilgach, ushbu yo‘l belgilariga qat’iy rioya qilinishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimi o‘rinbosari J.Bahodirov hamda shahar Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i v.b. F.Ismoilov zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **A. Eshankulov**

Ohangaron shahar hokimining
2023-yil 9-oktabrdagi
251-10-214-Q/23-son qaroriga
1-ilova

